TOG‘AY MUROD QISSALARIDA DIALEKTIZMLARNING lINGVOMADANIY KOD SIFATIDAGI AHAMIYATI

Mahmudova Shahnoza Soliyevna,
Navoiy viloyati radiokanali katta muharriri,
tadqiqotchi.
Samonurmahmudova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda Tog‘ay Murod qissalarida qahramon xarakterini ochib berishda dialektizmlarning ahamiyati va adibning ulardan foydalanish mahorati xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: dialektizm, lingvopoetika, obraz, qahramon nutqini individuallashtirish, milliy xarakter, madaniy kod.

Аннотация: В тезисе рассматривается значение диалектизмов в раскрытии характера персонажей в повестях Тогая Мурада, а также анализируется мастерство писателя в использовании диалектной лексики как средства художественной индивидуализации речи персонажей и создания национального колорита.

Ключевые слова: диалектизм, лингвопоэтика, художественный образ, индивидуализация речи персонажа, национальный характер, культурный код.

Abstract: This thezis examines the role of dialectal features in revealing character traits in Togay Murod’s novellas and explores the writer’s skill in employing dialect vocabulary as a literary device for individualizing characters’ speech and conveying national cultural identity.

Keywords: dialectal features, linguopoetics, literary character, individualization of character speech, national character, cultural code.

Kirish

Yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular shaxsiyatida ijobiy

fazilatlarni boyitish, milliy dunyoqarashini o‘stirishda Tog‘ay Murod asarlaridagi shevaga xos so‘zlarning badiiy qimmati va ahamiyati katta. Yozuvchi asarlarini tushunish, badiiy obrazli tafakkur va tasavvurning o‘quvchi ongida namoyon bo‘lishida, badiiy-estetik did muammosini hal etishda dialektizmlarni lingvopoetik tahlil etish muhimdir. Qolaversa, bu yozuvchi asarlaridagi o‘ziga xos dialektal badiiy uslubning imkoniyatini ochib berish va xalq shevalarida yashayotgan asl turkiy so‘zlarning lingvistik va poetik xususiyatlarini o‘rganishga imkon beradi.

Asosiy qism

So‘z bu ma’noning suratidir. Tog‘ay Murod asarlarida har bir so‘z milliy til ohangini eslatadi. Yozuvchi asarlarida qo‘llangan ko‘plab etnografik dialektizmlar xalqning ijtimoiy hayoti haqida ham xolis guvohlik berib turibdi. Adibning o‘tgan asrimizning 80–90-yillarida yozilgan asarlarida shevaga xos so‘zlar o‘z davrining so‘zlashuv tili namunasi, shu bilan birga, xalq tilining vaqt sarhadi bilan cheklanmagan imkoniyatidir. Ayniqsa, “Oydinda yurgan odamlar” qissasidagi obraz, tasvir, tuyg‘ularning qadriyatlar bilan uyg‘unligi dialektizmlar vositasida yanada real va betakror uslubda ifodalangan. Mazkur qissada sovchilar, qayliq udumi, to‘y, Navro‘z bayrami bilan bog‘liq qadriyatlar tasviri orqali etnografik dialektal leksemalar tarkibi shakllangan. Masalan, hudud ayol-qizlarining to‘y marosimi bilan bog‘liq milliy liboslari orqali yozuvchi ularning xarakter portreti, nafosat, nazokat, hayo singari jihatlarni kiyinish madaniyatiga xos axloq manzarasida bergan. Masalan, *Peshonalarda* ***manglaydo‘zilar*** *yal-yal bo‘ldi. Boshlarda* ***ottuyoq*** *ro‘mol,* ***sholro‘mol, balxiro‘mol, qulmiro‘mol, shotutro‘mol, simro‘mol,*** *harir ro‘mollar havolandi* [1,507-b]. Bu o‘rinda leksik dialektizmlar kelin obrazining tashqi va ichki olami, go‘zallikning nafis ifodasida hududiy chegarasi aniq bo‘lgan milliy joziba tasvirini yaratgan. Yangi kelinchakning tabiiy va axloqiy go‘zalligini ortiqcha mubolag‘asiz, bo‘rttirishlarsiz ta‘rifini berishda dialektal so‘zlar muhim rol o‘ynagan. Yozuvchi asarlarida uyushiq bo‘laklar eng ko‘p uchraydigan va o‘zining alohida stilistik

vazifasiga ega sintaktik hodisalardan hisoblanadi. Xususan, yuqoridagi misolda bir necha turdagi ro‘molni uyushiq bo‘laklar tarzida qo‘lash orqali ichki nutqda o‘qilganda ham inson tasavvurida milliy tasvirlar haqida tushuncha shakllanadi. Qolaversa, ro‘mol itoatkorlik, hurmat, mehnatkashlik, hayo singari ayolga xos sifatlar va ruhiyat manzarasi hatto tabiiy iqlim haqida ham ma’lumot beruvchi lingvomadaniy kod vazifasiga egaligini ko‘rish mumkin. Bu kabi madaniy kodlar orqali asardagi tarbiya va axloq konsepti shakllantirgan. Chunki liboslarning milliy nomlarida qadriyatlariga tafakkuri singib ketgan insonlarning ko‘ngil manzarasi muhrlangan.

Xalq shevalarida -lar qo‘shimchasi kuchaytirish, kesatish, kinoya, erkalash kabi hissiy-miqdoriy ma’no semasini ifodalashda juda erkin qo‘llangan. Tog‘ay Murod xalqning bu uslubidan o‘rinli foydalanish bilan badiiy asarda dialektal ohangdorlikni ta’minlaydi . Kelinning boshiga o‘ralgan ro‘mollar emas, ***boshlarda*** *ro‘mollarning havolanishi,* bu o‘rinda -lar qo‘shimchasi shevaga xos hurmat semasiga bog‘langan.

Asarda somatik leksik dialektizmlarni ham ko‘plab o‘rinlarda uchratish mumkin. Bular so‘zga chechan xalqning topqirligiga ham ishora qilib turadi. Tog‘ay Murod asarlarida bunday so‘zlar lingvopoetik salmoq jihatdan ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, shunday so‘zlardan biri ***solinchak*** dialektal yasama so’zidir. Ushbu so’z “O’zbek tilining izohli lug’ati” da quyidagicha izohlangan: “Quloqning sirg‘a taqiladigan pastki yumshoq qismi; sirg‘aliq”. [3,700-b] Ammo mazkur so‘z ma‘nosi haqida talabalar orasida so‘rovnoma o‘tkazilganda, hatto asarda keltirilgan parcha o‘qib berilganda ham, ularning aksariyati notanish so‘z sifatida qarab, ushbu so’zning ma’nosini tushunmaganliklari kuzatildi. ***Solinchaklarda*** *bodomnusxa kumush gajaklar,* ***oynador*** *baldoqlar* ***xalqa-xalqa*** *bo‘ldi.* [1, 507-b] Bu o‘rinda kelinning quloqlariga taqilgan ziraklar haqida obrazli tasavvurni topish uchun ham taqinchoqning tasviriy ifodasini bergan dialektal so‘zlar haqida tushunchaga ega bo‘lish muhim. Yozuvshi yirik ko‘zli zirakni ***oynador baldoq*** so’z birikmasi tarzida tasvirlaydi. Bu esa adibning so‘z qo‘llashda topqirligi, milliy til rivoji uchun qo‘shgan hissasini mezonlaydi.

J.Lapasov “Badiiy matn va lisoniy tahlil” kitobida dialektizmlar ko‘proq qahramonlar xarakterini ochib berish maqsadida qo‘llanilishini ta’kidlaydi. [4, 10-b] Tog‘ay Murod asarlarida dialektizmlarni keng ishlatishdagi badiiy ehtiyoj ham personajlar xarakterini, ruhiy holati, yosh xususiyati, ulardagi sodda-samimiylik, odamiylik, bag‘rikenglik va hatto salbiy sifatlarni ham qisqa va lo‘nda talqin etishda qo‘l kelgan. Yozuvshi bunda okkazional birliklarni ham aynan dialektal fonda qo‘llaydi. Natijada so‘zlar aynan kontekstdagi o‘rni, ishtiroki jarayonida shevaga xoslik kasb etganini ko‘rish mumkin. Boisi ular milliy xarakter va holatning semasiga bo‘ysundirilgan. Masalan: *Chavandoz ovozi* ***nordon-nordon*** *bo‘ldi, ammo* ***xushtalqin*** *bo‘ldi:*

*– **Ay** bakovul, mo‘yloving bo‘lgan bilan insofing yo‘q ekan! – dedi. – Qara, Tarlon o‘zini qayerdan tashladi! Ot sendan, mendan qo‘rqqanidan tashlamadi, yo‘q, odamzodga fidoyiligidan tashladi!* [2, 426-b] Ushbu nutqda hikoya qiluvchi ham muallif emas, balki asar qahramoni Ziyodulla chavandoz bo‘lgani uchun muallif nasriy nutqqa alohida e’tibor beradi. Bakovulning ***nordon-nordon ovozi*** okkazionallik asosida *nordon* so‘zining takror qo‘llanishi hamda ovozga nisbatan sifatlash semasida jahl aralash balandroq tonni ifodalashi va xushtalqin deya izohlanishi orqali bakovulning ruhiy holatidagi o‘zgarish, adolatlilik, jarayonga xolis baho berishni talab qilayotganligi anglashiladi. Bunda *nordon* so‘zi sintaktik strukturasi va stilistik-semantik vazifasiga ko‘ra dialektal uslub uchun xizmat qilgan. *Hoy* murojaat birligi o‘rnida ***-ay*** deya qo‘llanilishi esa personaj nutqidagi individuallik, keskinlik emotsiyasini dialektal ohangga solib ifodalagan. “Har qanday matnning yozma shakli, uning ontologiyasi tirik insonlarning mavjudligiga bog‘liq...”[4, 4-41-b]. Ziyodulla chavandoz tilidan tasvirlangan Jo‘ra bobo obraziga e‘tibor beraylik: *Jo‘ra boboning* ***boshi egilib qoldi***. ***Yuzi ko‘ksiga qarab qoldi*** *(boshi xam bo‘ldi, uyalib qoldi). Davralarda* ***dasturxondan ko‘z olmadi*** *(ma’rakalarga borganda farzandi yo‘qligi, bepushtlik tufayli o‘zini ojiz sezadigan bo‘ldi). Ko‘chalarda* ***etiklari uchiga qarab yurdi*** *(boshini tik ko‘tarolmadi, odamlarga qaray olmadi).* ***Ovozini qo‘yib***

gapirolmadi*...(baland ovozda gapirolmadi, ovozi chiqmay qoldi)... Jo'ra bobo* ***joniga to'ydi.*** [2,433-434-b] Yozuvchi obrazlar ruhiyati, uning hayotidagi kemtiklik, iztirobining hissiy me'yori, ta'sirchanligini oshirishda badiiy vosita sifatida iboralardan okkazional tarzda foydalanib portret chizadi. Toki kitobxon uning ismi orqali tashqi ko'rinishini tasavvur qilsin, iboraviy okkazional tasvir orqali uning ichki iztirobini his etsin. Chunki hissiy sezgilarga ta'sir etgan tushunchalar badiiy asarning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishda muhim hisoblanadi. Yozuvchining bu qissasida hikoya qiluvchi muallif emas aynan asosiy obraz Ziyodulla chavandoz bo'lganligi uchun ham asarda dialektal nutq, dialektal uslub ohangdorligi hukmronlik qilgan va bu obrazninig hayotiyligini yanaqa ko'proq asoslaydi.

Qimmat momo tizzasiga shapatilab ***vovaylo qildi****.* [1, 535-b] ***Vovaylo qilmoq*** – dod solmoq, baqirmoq ma'nosini bildirib, bu o'rinda noo'rin norozilikni, beodoblikni ifodalashga qaratilgan. Masalan, Navoiy viloyatining Qiziltepa, Karmana, Navbahor tumalarida xalq shevasida bu tarzdagi holatga nisbatan ***beobro'y*** so'zi ishlatiladi. Yozuvchi asarda Qimmat momo shaxsiga berilgan sifatda uning aytilgan-aytilmagan joyha ham borishi, odamlarning shaxsiy hayotiga asossiz aralashib yurishi, bunday keksalardagi g'iybatchilik, ko'rolmaslik, havasdan ko'ra hasadga moyil xarakteri bilan insonlarning qalbiga ozor berishini fosh etgan.

Xulosa

Tog'ay Murodning dialektizmlarni qo'llashdagi mahoratida yozuvchining nihoyatda zukko qarashlarini ilg'ash mumkin. Har bir badiiy asar g'oyasi real hayotdagi ijtimoiy voqelik, shu ijtimoiylikdan shakllangan milliy-madaniylik asosida o'sib chiqadi. Tog'ay Murodning dialektizmlarga ehtiyoji, avvalo, ana shu ijtimoiylik talabidan yuzaga kelgan. Har bir qahramonning ruhiy holatidan tashqari uning shaxs sifatidagi alohida xususiyatlarini va ijtimoiy hayot tasvirini yozuvchi dealektizmlar vositasida real ifodalagan. Bu jihatdan asardagi badiiy estetik tasvir vositasi sifatida sof leksik va etnografik dialektizmlarni lingvistik va poetik xususiyatlarini o'rganish

asarning badiiy imkoniyatlarini ilg‘ash, ijtimoiylik xususiyatlarini ochib berish uchun zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тоғай Мурод. Танланган асарлар: Романлар, қиссалар/Ойдинда юрган одамлар. – Т.: Sharq, 2018.
2. Тоғай Мурод. Танланган асарлар: Романлар, қиссалар/От кишнаган оқшом. – Т.: Sharq, 2018.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildlik, 4-jild, –Toshkent, 2023.
4. Долгова О.В. Синтаксис как наука о построении речи. –М.: Высшая школа, 1980. –С.40-41
5. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.10
1. Qobilov N. Tog‘ay Murod asarlarida shevaga xos so‘zlar. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2021-yil 3-son, 104-bet.